Davletov Jamshid Bekmatovich (Urganch RANCH Texnologiya universiteti dotsenti, falsafa doktori (PhD);
UDK: 316.7. 303.3.173; davletovjamshid7@gmail.com; ORGID https://orcid.org/0009-0005-0338-2272)

ISLOM TA'LIMOTIDA IJTIMOIY ADOLAT VA BAG'RIKENGLIK TAMOYILLARINING NAMOYON BO'LISHI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada islom ta'limotida ijtimoiy adolat va bag'rikenglik tamoyillarining namoyon bo'lishi masalalari yoritilgan bo'lib, ushbu jarayonda adolat va bag'rikenglik tamoyillari davlat va jami-yat barqarorligini ta'minlovchi muhim fenomenlar ekanligi ijtimoiy-falsafiy jihatdan tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *Islom dini, diniy qadriyatlar, ijtimoiy adolat, tolerantlik, gumanistik tamoyillar, konfessiyalararo bag'rikenglik, millatlararo totuvlik.*

ПРОЯВЛЕНИЕ ПРИНЦИПОВ СОЦИАЛЬНОЙ СПРАВЕДЛИВОСТИ И ТЕРПИМОСТИ В ИСЛАМСКОМ УЧЕНИИ

Аннотация. *В данной статье рассматривается проявление принципов социальной справедливости и терпимости в исламском учении, и в этом процессе анализируется с социально-философской точки зрения, что принципы справедливости и терпимости являются важными явлениями, обеспечивающими стабильность государства и общества.*

Ключевые слова: *Ислам, религиозные ценности, социальная справедливость, толерантность, гуманистические принципы, межрелигиозная терпимость, межэтническая гармония.*

THE MANIFESTATION OF THE PRINCIPLES OF SOCIAL JUSTICE AND TOLERANCE IN ISLAMIC TEACHINGS

Annotation. *This article discusses the manifestation of the principles of social justice and tolerance in Islamic teachings, and in this process, it analyzes from a socio-philosophical perspective that the principles of justice and tolerance are important phenomena that ensure the stability of the state and society.*

Key words: *Islam, religious values, social justice, tolerance, humanistic principles, interfaith tolerance, interethnic harmony.*

Kirish. Dunyoda kechayotgan etnik majoro va to'qnashuvlar fonida har bir mamlakat tinchligi va bar-qarorligini ta'minlashda jamiyatda adolat va bag'rikenglik prinsiplarini qaror toptirish zarurati hal qiluvchi ahamiyat kasb etib bormoqda. Darhaqiqat, adolat va bag'rikenglik g'oyalari insoniyat sivilizatsion taraqqiyotining barcha davrlarida ijtimoiy hayotning turli sohalariga o'zining ta'sirini o'tkazib kelgan. Bag'rikenglik va adolat islom dinining asosiy tamoyillari va axloqiy qadriyatlari sifatida doimo gumanizmni targ'ib qilgan.

O'zbek xalqining ko'p asrlik tarixiy taraqqiyotiga nazar tashlab aytish mumkinki, xalqimiz o'z e'tiqodida islomiy qadriyat va an'analarga amal qilish jarayonida dinning adolat va bag'rikenglik t-moyillaridan real hayotda unumli foydalanishga jiddiy e'tibor qaratgan. Chunki gumanistik tamoyillar va g'oyalar hamda turli yo'nalishlardagi dunyoqarashning, jumladan, adolat va bag'rikenglik tamoyillarining ham integratsiyalashuv nuqtasi aynan Islom dinida tutashadi hamda umuminsoniy mohiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda milliy va diniy qadriyatlar qadr topayotgan hozirgi davrda Islom diniga va uning gu-manistik mohiyatiga nisbatan adolatli munosabatda bo'lish va uni tolerantlik nuqtai nazaridan tadqiq qilish hamda ilmiy xulosalar berish muhim hisoblanadi. Xususan, xalqimizning 92% dan ortiq qismi e'tiqod qiluvchi Islom dinining ijtimoiy hayotdagi roli va o'rnini tadqiq qilish muhim ahamiyatga egadir. O'zbekiston olimlari, asosan, mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan so'ng islom dini va diniy qadriyatlar, islomda adolat va tolerantlik tamoyillarining namoyon bo'lishi bilan bog'liq masalalarga doir ilmiy tadqiqod natijalari, monografiyalar, risolalar va kitoblar e'lon qildilar. Ularni o'rganish ijtimoiy adolat va bag'rikenglik muammolarini diniy qadriyat va an'analar asosida ilmiy tahlil qilishga yordam beradi.

Adabiyotlar tahlili. Hozirgi davrda ijtimoiy hayotning barcha sohalarida adolat va bag'rikenglik tamo-yillarining qaror topishida dunyoviy va diniy ta'limotlarning umummilliy va umuminsoniy tamoyillar bilan uyg'un holda amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Adolat va bag'rikenglik tushunchalari ko'p qirrali va murakkab ijtimoiy hodisa bo'lganligidan, uning ob'yektiv va subyektiv omillari, shart-sharoitlari va amalga oshirish imkoniyatlari ilmiy talqinida Islom ta'limotidan unumli foydalanish g'oyat muhimdir. Xususan, Qur'oni karim islomni asosini ifodalab bersa, "Hidoya"[1] va "Al-muvatto"[2] asarlari esa ularning huquqiy mezonlarini belgilab beradi.

Islom dini manbalarida adolat va bag'rikenglik tamoyillarining namoyon bo'lish xususiyatlarini tahlil qilishda aqidaparastlik, mutaassiblik kabi reaksion oqimlarga yon berish o'ta adolatsizlik ekanligini

[1] Бурҳониддин Марғиноний. "Ҳидоя". Тошкент, "Адолат", 2000.
[2] Молик ибн Анас. "Ал-муввато". Қоҳира, Миср нашри. 1348 ҳ/й.

ilmiy isbotlash bugungi kunda hayotiy ehtiyojga aylanib bormoqda. Istiqloldan so‘ng mamlakatimizda Islom dini mavqeyining qayta tiklanishi, uning gumanistik mazmunini, jumladan, ijtimoiy adolat va bag‘rikenglik tamoyillarini jamiyatda boshqa ijtimoiy ong shakllari va munosabatlar bilan integratsiyalashgan holda o‘rganish za-ruratini keltirib chiqardi.

Jumladan, Alloh taolo aytadi: “Kechirimli bo‘l, yaxshilikka buyur va johillardan yuz o‘gir” (A’rof surasi, 199-oyat). Qur’oni karimning ushbu oyati barchaga birdek bag‘rikeng va adolatli munosabatda bo‘lishni hamda ushbu tamoyilni qabul qilmagan bilimsiz johillarga e’tibor bermaslikka buyuradi. Dinlararo bag‘rikenglik va adolat tamoyili barcha jahon dinlariga xos hisoblanadi. Bunga Qur’oni karimning Hadid surasidagi oyat ham guvohlik beradi: “Darhaqiqat, Biz payg‘ambarlarimizni ravshan(narsa)lar ila yubordik va ular ila Kitob hamda odamlar adolatda turishlari uchun mezon tushirdik” (Hadid surasi, 25-oyat). Islom dini jamiyatdagi adolat mezoni qaysi din vakili bo‘lishidan qat’iy nazar, barchaga birdek barobar ta’minlanishi zarurligini ta’kidlaydi. Jumladan, Alloh taolo aytadi: “Alloh sizlarni din sababli urush qilmagan va diyorlaringizdan chiqarmaganlarga yaxshilik va adolatli muomala qilishdan qaytarmas. Albatta, Alloh adolat qiluvchilarni yaxshi ko‘radir” (Mumtahana surasi, 8-oyat). Yuqoridagi oyati karimalardan ma’lum bo‘ladiki, islom dinlararo bag‘rikenglikni adolat mezoni bilan tartibga solishga buyurib, insonlarning huquqlarini cheklashni qoralagan.

Islomning asosiy manbasi bo‘lgan Hadisi shariflarda ham adolatli bo‘lishga va diniy bag‘rikenglikga chaqirilgan. Payg‘ambarimiz Muhammad alayhissalom barchaga bag‘rikeng munosabatda bo‘lish ta’kidlaydi hamda raiyatga nisbatan nafratda bo‘lishdan, adolatsizlikdan, erkinlikni cheklashdan, shuningdek, ularning e’tiqodi, irqi, tana rangi yoki millati sababli zulm qilishdan qaytarganlar.

Aholini ilm va ma’rifatga olib boruvchi ideal jamoa, adolatli jamiyat qurishni orzu qilgan Islom falsafasining yirik vakili Forobiy adolatsizliklarga yo‘l qo‘ymaslikning asosiy sharti – davlat va jamiyatni boshqarishning to‘g‘ri tashkil etilishida, unga har tomonlama yetuk, o‘zida eng yaxshi insoniy fazilat va go‘zal xulqlarni mujassam qilgan kishilarning jalb etilishida deb bilgan. Ana shundagina, jamiyatda adolat qaror topadi, inson o‘zining yaratuvchanlik imkoniyatini namoyon qila olishi uchun sharoit yuzaga keladi, deb yozadi.

Adolat qaror topgan va, aksincha, adolatsizlik hukmron jamiyatlarga xos bo‘lgan xususiyatlarga to‘xtalib: “Madaniy jamiyat yoki madaniy shahar (yoki mamlakat) shunday bo‘ladiki, shu mamlakatning aholisidan bo‘lgan har bir odam kasb-hunarda ozod, hamma teng bo‘ladi, kishilar o‘rtasida ijtimoiy farq bo‘lmaydi, har kim o‘zi istagan yoki tanlagan kasb-hunar bilan shug‘ullanadi. Odamlar chin ma’nosi bilan ozod bo‘ladilar, ammo ba’zi shahar (yoki mamlakat) bo‘ladiki, ularda butun xalqning fikri-zikri, aql-idroki boylik to‘plash, mol-dunyo orttirishga qaratilgan bo‘ladi. Ulardan chiqqan rahbarlar ham rahbarlikni mol-dunyoni ko‘paytirishda deb biladilar. Shuning uchun ham ular erta-kech mol-dunyo to‘plash harakatida bo‘ladilar. Bunday rahbarlarning qo‘l ostida ishlagan shahar xalqlarida turli buzuq odatlar, shahvoniy nafs, hasad, bir-birlarini talash, dushmanlik, nizo-janjallar paydo bo‘ladi. Anan shunday shahar xalqlaridan xislatlari, mayllari turlicha bo‘lgan avlod tug‘iladi”[1], deb yozadi.

Sharqning buyuk mutafakkiri Husayn Voiz Koshifiy o‘zining “Axloqi Muhsiniy” nomli asarida inson-larni odamiylik, samimiylik va boshqa go‘zal insoniy fazilatlarni egallash bilan birga, adolatlilikka va bag‘rikenglikka chorlagan. Agar adolat himoya qilinmasa, zaif va kuchsiz odamlar yo‘qolib ketadi. Modomiki, zaiflar qirilib ketar ekan, kuchlilar ham omon qolmaydi, chunki kishilar turmushi bir-biri bilan o‘zaro bog‘liq. Xullasi kalom, xalqning ahvoli adolatga bog‘liq bo‘lib, usiz yaxshilanmaydi.[2] Umuman, Husayn Voiz Koshifiy insonlarni jamiyat hayotida go‘zal xulqli, ilm-ma’rifatga intiluvchi, adolatsizlikka qarshi kurashuvchi, mard bo‘lishlari haqida uqdirgan. Zero, bugungi kunda ham uning adolat va bag‘rikenglik haqidagi falsafiy, axloqiy qarashlari muhim ahamiyatga egadir.

Islom dini shariatiga asoslanib ishlarini yuritgan Amir Temur: “Men o‘z saltanatim binosini islom dini, to‘ra va tuzuk asosida mustahkamladim. Saltanatni boshqarishimda uchragan har qanday voqea va ishni to‘ra va tuzuk asosida ado etdim”,[3] deydi. Amir Temurning adolatlilik tamoyiliga asoslangan davlat boshqaruvi siyosatini uning “Kuch – adolatdadir” degan iborasi ham tasdiqlaydi.

Tahlil va natijalar. Yuqorida keltirilgan mutaffakirlarning fikrlaridan shunday xulosalarga kelish mumkin: Birinchidan, jamiyatdagi adolatsizlikka olib keluvchi asosiy narsa qonunsizlikdir. Ya’ni, qonun

---

[1] Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шаҳри. Тошкент, Абдулла Қодирий номидаги “Халқ мероси” нашриёти, 1993, 190–191-бетлар.

[2] Воиз Кошифий. Аҳлоқи Муҳсиний (форс тилида). ЎзРФА Шарқшунослик институти қўлёзмалар фонди, инв. № 3020, “Адолат” боби. 51–52-бетлар.

[3] Темур тузуклари. Форсчадан А.Соғуний ва Ҳ.Караматов тарж., Т., Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1996, 70-бет.

ustuvorligi o‘rnatilmagan jamiyatda adolat o‘rnatish amri maholdir. Ikkinchidan, bu subyektiv omillardir, ya’ni, ta’magirlik, poraxo‘rlik, o‘g‘rilik, rahbar xodimlarning mas’uliyatsizligidir. Jamiyat tarixiy taraqqiyotida mavjud adolatsizliklarga qarshi kurashish, hamma vaqt ilg‘or fikr egalari rahnamoligida, xalqning diqqat-e’tiborida bo‘lgan. Chunki insonning adolat va bag‘rikenglikka bo‘lgan intilishi uzluksiz jarayon bo‘lib, uning mohiyati, mezonlari tarixan shakllangan ijtimoiy-siyosiy munosabatlarni insonparvarlashtirish ehtiyojlaridan kelib chiqqan va muayyan jamiyatning manfaatlariga mos kelgan.

Islom manbalarida adolatli jamiyat, adolatli boshqaruv, bag‘rikeng siyosat tushunchalari, jumladan, adolat va bag‘rikenglik fenomenlari o‘ziga xos tarzda talqin qilinib, sivilizatsiyaning ijtimoiy, siyosiy, huquqiy adolatlilik va bag‘rikenglik g‘oyalari doimo rivojlantirib borilgan. Aytish lozimki, davlat va jamiyat taraqqiyoti kishilarning adolat va bag‘rikenglik g‘oyalarini qay darajada tushunishlari va ularga ijtimoiy hayotda amal qilishlariga bog‘liq bo‘ladi.

Umuminsoniy prinsip sifatida jamiyat barqaror taraqqiyotining asosiy tamoyillaridan biri bo‘lgan bag‘rikenglik borasida 1995-yil 16-noyabrda BMT tizimida fan, ta’lim va madaniyat sohasida ixtisoslashgan tashkilot (UNESKO) Bosh konferensiyasining 28-sessiyasida “Bag‘rikenglik tamoyillari deklaratsiyasi” qabul qilindi. Deklaratsiyada irqi, jinsi, millati, kelib chiqishi, tili, dinidan qat’iy nazar, bag‘rikenglikni targ‘ib etish, inson huquqlari va erkinliklariga hurmat bilan qarash kabi majburiyatlar belgilab qo‘yilgan. Deklaratsiyada ta’kidlanganidek, bag‘rikenglik bo‘lmasa tinchlik bo‘lmaydi, tinchliksiz esa adolat va taraqqiyot bo‘lmaydi.

Xulosa. Adolat va bag‘rikenglikning mohiyatini anglash hamma vaqt ijtimoiy-siyosiy shart-sharoitlar bilan belgilangan va davrning hukmron tendensiyalari, tarixiy shaxslarning mavqeyi, maqsad – intilishlari, dunyoqarashi bilan uzviy bog‘liq bo‘ladi. Shuning uchun, hatto buyuk mutafakkirlar ham muayyan tarixiy davr, ijtimoiy-siyosiy tuzumga xos adolatsizliklarga turlicha, hatto radikal qarama-qarshi munosabat bildirganlar. Ayni paytda, odil hukmdor, adolatli jamiyat va unda huquqiy qonunlarning ustuvor bo‘lishini orzu qilishgan.

Yuqorida keltirilgan fikrlardan xulosa qilib aytganda, islom dini ijtimoiy adolat va bag‘rikenglik g‘oyalarini ibodat darajasiga ko‘targan buyuk ta’limot hisoblanadi. Ijtimoiy adolat va bag‘rikenglik har qanday davrda jamiyat taraqqiyotiga ta’sir qiluvchi muhim tamoyillar bo‘lib, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy-mafkuraviy, diniy munosabatlar majmuini qamrab oladi hamda ijtimoiy hayot o‘zgarishi bilan bog‘liq tarzda o‘zgarib, takomillashib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд, Т., “Ўзбекистон”, 2017.

(2). Бурҳониддин Марғиноний. “Ҳидоя”. Т., “Адолат”, 2000.

(3). Молик ибн Анас. “Ал-муввато”. Қоҳира, Миср нашри. 1348 ҳ/й.

(4). Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шаҳри. Т., Абдулла Қодирий номидаги “Халқ мероси” нашриёти, 1993.

(5). Темур тузуклари. Форсчадан А.Соғуний ва Ҳ.Караматов тарж., Т., Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1996.

(6). Воиз Кошифий. Аҳлоқи Муҳсиний (форс тилида). ЎзРФА Шарқшунослик институти, қўлёзмалар фонди, инв. № 3020, “Адолат” боби.

(7). Очилдиев А. Бағрикенглик – барқарорлик ва тараққиёт омили. Т., Тошкент Ислом университети, 2007.

(8). Murtazayeva R.X. O‘zbekistonda millatlararo munosabatlar va bag‘rikenglik. O‘quv qo‘llanma, T., “Universitet”, 2007.